### *Mashg'ulotni o'tkazish rejasi:*
### *I. Talabalar bilimini tekshirish:*

1. Rag'batlantirish metodining tarbiyaviy ahamiyati.
2. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari
3. Jamoada rag'batlantirishning metodidan foydalanish.

Rag'batlantirish – pedagogik ta'sir ko'rsatish usulidir. O'quvchilarning, bolalar jamoasining hatti-harakatlari va ishlarini ijobiy baholash uning asosini tashkil qiladi. Rag'batlartirishning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilar xulq-atvorida ijobiy xislatlarni ko'paytirib, mustahkamlashga yordam beradi. Unda rag'batlantirilgan o'quvchilargina emas, balki butun sinf zaruriy saboq oladi. Buning natijasida o'quvchilar jamoasida ishni yanada yaxshi bajarishga, tartib-intizomli bo'lishga ishonchni oqlashga intilish yuzaga keladi.

Agar sinf jamoasi rag'batlantirilayotgan bo'lsa, har bir o'quvchi o'z jamoasi uchun quvonch va iftixor hissini boshidan kechiradi, uning muvaffaqiyatlarini saqlash va rivojlantirishga harakat qiladi.

Ammo noto'g'ri rag'batlantirishlar ayrim o'quvchilarda va jamoalarda o'z-o'zidan mag'rurlanish, o'z-o'zidan yuqori baho qo'yish, o'rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik kabi salbiy xislatlarni tarbiyalashi mumkin. Maqtov, tashakkur, mukofot jamoa a'zolarining fikr-mulohazalariga asoslangan bo'lsagina ko'zda tutilgan maqsadlarga erishiladi.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari nimadan iborat?
3. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
4. Rag'batlantirishning jamoaga ta'siri qanday deb bilasiz?
5. O'quvchini rag'batlantirish usullari haqida aytib bering.

### *II. Amaliy topshiriqlar::*

1. O'quvchilarni kuzatish metodi orqali tarbiyasini o'rganish.
2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda rag'batlantirishdan foydalanishni kuzatish.

### Adabiyotlar ro'yxati:


1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq", 1997.
2. Jo'rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T.: "O'qituvchi", 1994.
3. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1995.
4. Mavlonova R. va boshq. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: «Tib-kitob», 2010.
5. w.w.w. /ziyo.net/ uz
6. w.w.w /pedagog/ uz


### *5-laboratoriya mashg'uloti*

*Mashg'ulot mavzusi:* **Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash.**

Mashg'ulot maqsadi: ***Iste'dodli bolalarni aniqlash usullarini ishlab chiqish va ularni tarbiyalash metodlarini o'rgatish.***

*Metodik ta'minot:* sxemasi, plakatlar, didaktik materiallar, savol-javoblar, sinf rahbarning tarbiyaviy ish rejasi va mavzuga oid adabiyotlar.

*Vazifalar va tayanch tushunchalar:* Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi, tarbiyaga va qo'llab quvvatlashga bog'liqdir. har qanday jamiyatga iste'dodli shaxslar zarur. Shu nuqta nazardan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitish respublikaning bo'lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning yagona manbaidir. Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o'quvchilar iste'dodini aniq tahlil etish, bolalarning o'ziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olish zarur. Turli yoshdagi iste'dodli o'quvchilarni namoyon etishda hozirgi kunda, avvalo maktab pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostik tajribalardan unumli foydalanishlari zarur. Bunda «Respublika Iste'dod Markazi» xodimlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Iste'dod markazi xodimlarining faoliyati tajribasidan foydalanish, ularning iste'dodni aniqlashga mo'ljallangan psixologik tadbirlarni pedagogik tajribalar bilan hamohang ishlab chiqish lozim. Bu sohada «Ulug'bek», «Umid», «Oltin meros», «Ustoz» jamg'armalari bilan hamkorlikda ish olib borish kerak.

***Mashg'ulotni o'tkazish rejasi:***
***I. Talabalar bilimini tekshirish:***

1. Iste'dod tushunchasi.
2. O'quvchilarda iste'dodni rivojlantirish.
3. Iste'dodli bolalarga muhitning ta'siri.

Qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarda rivojlantiradi.

O'quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dod va iqtidorni ongli rag'batlantirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning ijobiy qiziqishlari rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish lozim.

Iste'dodli bolalarning taniqli olimlar laboratoriyalarida shug'ullanishi, shoir, yozuvchi, rassom kabi san'at namoyandalari bilan hamkorlik qilishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa, respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish va ularning ta'lim va tarbiyasini muntazam ravishda to'g'ri yo'lga qo'yish lozimdir.

Iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitishni quyidagi omillarga bog'liq:
- ushbu aniqlashning ijtimoiy ahamiyatini, respublikaning zakovati, kuch-qudratini tayyorlashning istiqboli bilan bog'liqligini tushunishga;
- ruhiy diagnostik uslubiyat, uslubiy materiallari bo'lgani holda turli yoshdagi guruhlarda aniqlashning umumiy dasturlari yaratilishiga;
- iste'dodli bolalar (maxsus tayyorlangan rejalar, dasturlar, ilmiy asoslangan uslubiyat va hokazo bo'yicha) bilan ishlash uchun ixtisoslashgan muassasalarning yagona tarmog'ini targ'ib etishga;
- ommaviy o'quv yurtlarida iste'dodli bolalar bilan ishlash uchun zarur o'quv-dasturiy qo'llanmalarni ishlab chiqishga;
- joylarda maxsus guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan xalq ta'limi, davlat va jamoa muassasalari, ijodiy uyushmalar tomonidan tasdiqlangan dasturlarga (bu dasturlarda iste'dodli bolalar bilan ishlashning istiqbollari va bosqichlari, o'z hududida bunday faoliyat va ko'pgina boshqa tadbirlar uchun mablag' ajratish, ularni ta'minlashga);
- ilmiy tadqiqotlar maktablar uchun me'yoriy hujjatlar, sinf ishlanmalari majmuiga, iste'dodli o'quvchilar haqida ma'lumotlar manbaini yaratishga, ularni o'qitish va

tarbiyalashning (tabaqalashtirish, individuallashtirish, insonparvarlashtirish) yagona uslubiy asosni yaratishga bog'liq.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Iste'dod qanday bolalarda namoyon bo'ladi, izohlang.
2. Iste'dodni rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak.
3. Iste'dodli bolalarga muhitning ta'siri bormi?
4. Iste'dodli bolalarni qanday aniqlaysiz?
5. Iste'dodli bolalarni tarbiyalashda qaysi omillardan foydalanamiz?

### *II. Amaliy topshiriqlar::*

1. O'qituvchi va tarbiyachilarning iste'dodli va iqtidorli bolalar bilan ishlash uchun o'quv rejasi va dasturlari bilan tanishish.
2. Iste'dodli va iqtidorli bolalar bilan suhbat o'tkazish va kuzatish.

### Adabiyotlar ro'yxati:


1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq", 1997.
2. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: «O'qituvchi», 1993.
3. Jo'rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T.: "O'qituvchi", 1994.
4. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1996.
5. Ochil S. Mustaqillik va tarbiya masalalari. -T.:"O'zbyekiston", 1995.
6. Hasanboyeva O. Uzaytirilgan guruhlarga tarbiyaviy ishlar. -T.: "O'qituvchi", 1994.
7. Mavlonova R. va boshq. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: «Tib-kitob», 2010.
8. w.w.w. /ziyo.net/ uz
9. w.w.w /pedagog/ uz


## *6-laboratoriya mashg'uloti*

*Mashg'ulot mavzusi:* **Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish.**

*Mashg'ulot maqsadi:* **Talabalarga, ota-onalarga pedagogik bilim berishning shakl va metodlarini o'rgatish.**

*Metodik ta'minot:* Plakatli ko'rgazmalar, anketalardan foydalanish, tarqatma materiallar, testlar va mavzuga oid adabiyotlar.

*Vazifalar va tayanch tushunchalar:* Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ota-onalarni pedagogik va ruhiy bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, oilada tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish mumkin emas.

### *Mashg'ulotni o'tkazish rejasi:*

### *1. Talabalar bilimini tekshirish:*

1. Bola tarbiyasida yosh ota-onalarning bilimi yetarli deb bilasizmi? Ota-onalarga pedagogik bilim berish usullari haqida gapiring

2. Pedagogik bilimlarning turli shakllarda olib borilishini izohlang
3. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qaysi mavzularni ko'rsata olasiz?
4. Ota-onalarga bilim berishni qaysi shaklda olib borilgani ma'qul, izohlab bering.

Pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarur. Bu bilim maktabda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi muammolar pedagogik bilimni yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Maktabdagi pedagogik bilim turli shakllarda amalga oshiriladi:
Pedagogik ma'ruza, ilmiy-metodik kengash, «Savolingizga javob beramiz» (ota-onalar kuni).

Ota-onalar uchun ma'ruza: Ma'ruza ota-onalarga pedagogik bilim beradigan turlardan biridir. Ota-onalar uchun mo'ljallangan ma'ruza ta'limi - tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Ota-onalar uchun pedagogik bilim beradigan ma'ruzalar mavzulari:

- milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va barkamol inson tarbiyasida ota-onalar o'rni
- oilada iqtisodiy tarbiya
- ma'naviy meros va oila
- siz o'tmish avlodlaringizni bilasizmi? Oilanoma yaratish masalalari
- mutafakkirlar ijodiyotida oila tarbiyasi
- farzand tarbiyasida xalqimiz qo'llagan usullar
- oiladagi adolat – to'g'ri tarbiya asosidir
- farzandingiz saxiy, muruvvatli bo'lsin desangiz?
- Oilada iymon-e'tiqod tarbiyasi

Ota-onalar uchun tanlangan mavzular quyidagicha rivojlantiriladi.
Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish quyidagi ko'rinishlarda olib boriladi:

1. Ota-onalar o'rtasida tarbiyaga oid targ'ibotlar olib borish;
2. Ota-onalarni hozirgi zamon tarbiyaviy bilimlari bilan qurollantirish;
3. Eng yaxshi oilalar faoliyatini namuna sifatida ommalashtirish;
4. Ota-onalarni sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish;
5. O'quvchilar orqali oilalarga ta'sir o'tkazish;
6. Mahalla qo'mitalari bilan hamkorlik:
7. Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Bola tarbiyasida yosh ota-onalarning bilimi yetarli deb bilasizmi? Izohlab bering.
2. Ota-onalarga pedagogik bilim berish usullari haqida gapiring
3. Pedagogik bilimlarning turli shakllarda olib borilishini izohlang
4. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qaysi mavzularni ko'rsata olasiz?
5. Ota-onalarga bilim berishni qaysi shaklda olib borilgani ma'qul, izohlab bering.

### *II. Amaliy topshiriqlar::*

1. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berishni o'rganish

2. Sinfda ota-onalar yig'ilishini tashkil etish metodikasini o'rganish

**Adabiyotlar ro'yxati:**


1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq", 1997.
2. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: «O'qituvchi», 1993.
3. Jo'rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T.: "O'qituvchi", 1994.
4. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pyedagogik asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1996.
5. Hasanboyeva O. Uzaytirilgan guruhlarga tarbiyaviy ishlar. -T.: "O'qituvchi", 1994.
6. Mavlonova R. va boshq. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: «Tib-kitob», 2010.
7. w.w.w. /ziyo.net/ uz
8. w.w.w /pedagog/ uz


## *7-laboratoriya mashg'uloti*

*Mashg'ulot mavzusi:* **Sinfda ijobiy an'analarni qaror toptirish.**

*Mashg'ulot maqsadi:* **Sinf jamoasini faollashtirish usullarini o'rganish. Sinf jamoasida an'analarning ijobiy ta'sirini kuzatish usuli. Bayram tadbirlarini o'tkazish usullarini o'rganish.**

*Metodik ta'minot:* Plakatli ko'rgazma, tarqatma materiallar, testlar, mavzuga oid turli savollar va adabiyotlar.

*Vazifalar va tayanch tushunchalar:* An'ana – kishilarning muayyan tarixiy sharoitda vujudga kelgan va avloddan-avlodga o'tib boradigan g'oya, dunyoqarash, urf-odat, tartib, shuningdek xulq-atvor me'yoridir. Ijobiy an'analar. An'ana, rasm-rusum va urf-odatlarning xususiyatlari.

### *Mashg'ulotni o'tkazish rejasi:*

### *I. Talabalar bilimini tekshirish:*

1. An'analarning o'quvchi hayotidagi o'rni
2. Tarbiyaviy ishlarda an'analardan foydalanish.
3. Sinf jamoasida an'analarni tarkib toptirish va tashkil etish.

An'ana – kishilarning muayyan tarixiy sharoitda vujudga kelgan va avloddan-avlodga o'tib boradigan g'oya, dunyoqarash, urf-odat, tartib, shuningdek xulq-atvor me'yoridir. An'ana – bu yaxshi urf-odat, jamoa hayotiga mustahkam o'rnashib qolgan ijobiy tajribalardir. Sinf jamoasining foydali ish faoliyati, agar u takrorlanib tursa va odat tusiga kirib qolsa, bu faoliyat an'anaga aylanadi.

Misol tariqasida turli bayramlarni nishonlash, ijodiy ko'riklar tashkil qilish, maktabni biritganlar bilan uchrashuvlar, tug'ilgan kunlarni muborakbod etish va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. O'quvchilarni jipslashtirishda qaysi an'analardan foydalanish mumkin?
2. An'ana o'quvchilarning tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Fikringiz?

3. Zamonaviy an'analarga qaysi an'analar kiradi?
4. Ijobiy an'analarga qaysi an'analar kiradi?
5. Sinfda «tug'ilgan kunni o'tkazish» an'anasining ijobiy tomonlarini izohlab bering.
6. An'ana, rasm-rusum va urf-odatlarning bir-biridan farqini izohlab bering.

### *II. Amaliy topshiriqlar::*

1. Sinfda an'analardan foydalanish usullarini o'rganish.
2. Tarbiyaviy ishlarda an'analardan foydalanish usullarini o'rganish.

### Adabiyotlar ro'yxati:


1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq", 1997.
2. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: «O'qituvchi», 1993.
3. Jo'rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T.: "O'qituvchi", 1994.
4. Hasanboyeva O. Uzaytirilgan guruhlarga tarbiyaviy ishlar. -T.: "O'qituvchi", 1994.
5. Mavlonova R. va boshq. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: «Tib-kitob», 2010.
6. w.w.w. /ziyo.net/ uz
7. w.w.w /pedagog/ uz

## O’z-o’zini nazorat qilish savollari

1. Sinf rahbari xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz haqida bilimga ega bo’lishi.
2. Sinf rahbari izlanuvchan va bilimdon (anatomiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi fanlaridan xabardor) bo’lmog’i.
3. Sinf rahbarining yuksak pedagogik odobi.
4. Sinf rahbarining o’quvchilar bilan bo’lgan muomala munosabati, tashkilotchining qobiliyati.
5. Sinf rahbarining yuksak ma’naviy kamoloti deganda nimani tushunasiz?
6. Sinf rahbari qanday hislatlarga ega bo’lishi kerak?
7. Sinf rahbari o’quvchilar bilan qanday muomala qilishi kerak?
8. Sinf rahbarining odobi qanday bo’lishi kerak?
9. Sinf rahbari o’z ustida ishlashi uchun nimalar qilishi kerak?
10. Sinf rahbarining qanday mas’uliyatni o’z bo’yniga olishi kerak?
11. Sinf rahbarining ma’naviy ishlar bo’yicha faoliyati.
12. Ma’naviy ishlarni shakllantirish usullari.
13. Ma’naviy ishlarni o’quvchilarga ta’siri.
14. Tarbiyaviy ish rejasini hamkorlikda tuzish.
15. Ma’naviy ishlarni shakllantirishda qanday usullardan foydalaniladi?
16. Sinf rahbarining ma’naviy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari bilan olib boradigan ish faoliyati.
17. Tarbiyaviy ish rejasini kim bilan hamkorlikda tuzish mumkin?
18. Ma’naviy ishlar o’quvchilar ongiga qanday ta’sir etadi?
19. Ma’naviy ishlar faoliyati bo’yicha asosiy rolni kim bajaradi?
20. Sinf rahbari o’quvchilarni xarakterini, psixikasini , oilaviy sharoitini o’rganishi.
21. O’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi muomala odobi.
22. O’qituvchining ta’lim va tarbiya berish usul va metodlari.
23. O’quvchining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.
24. O’quvchiga zamon talabi asosida yo’nalish berib to’g’ri yo’lga solish.
25. O’quvchi va o’qituvchilarning oilaviy sharoitini qanday qilib bilish mumkin?

26. O'qituvchi o'quvchilarning oilaviy sharoitini bilish qay darajada bulishi ahamiyatli.

27. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muomala odobi qanday bo'lishi kerak?

28. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muomala odobida nimalarga e'tibor berish kerak?

29. O'qituvchining ta'lim berish usullari va metodlari.

30. O'qituvchining tarbiya berish usullari va metodlari.

31. O'quvchilarning darsdagi faolliklarini nazorat qilish.

32. Bo'sh o'quvchilar bilan individual shug'ullanish.

33. Ulgurmovchi o'quvchilarni faolliklarini oshirish. Darsda va tadbiralarda.

34. Ulgurmovchi o'quvchilarni a'lochi o'quvchilarga biriktirib, bir partada o'tkazish.

35. Ulgurmovchi o'quvchilarni kamsitishga yo'l qo'ymaslik.

36. Ulgurmovchi o'quvchilar bilan qanday individual shug'ullanish mumkin?

37. Ulgurmovchi o'quvchilarni faolliklari qanday oshiriladi?

38. Ulgurmovchi o'quvchilarni a'lochi o'quvchilar bilan biriktirish qay darajada ahamiyatli?

39. Ulgurmovchi o'quvchilarning ulgurmay qolish sabablari?

40. Ulgurmovchi o'quvchilarni temperamentini o'rganish qay darajada ahamiyatli?

41. Ulgurmovchi o'quvchilarga mas'uliyatli vazifa yuklashga qanday qaraysiz?

42. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishda o'quvchilarni yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish.

43. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishni metod va yo'nalishlari.

44. Sinf rahbari o'quvchilarni kutubxona bilan hamkorlikda ishlashlarini nazorat qilish.

45. Yozuvchilar bilan ertaliklar o'tkazish va sinfdan tashqari o'qishlarni samaradorligiga erishish.

46. Sinfdan tashqari o'qishni qanday tashkil etiladi?

47. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishda nimalarni hisobga olish kerak?

48. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish qanday metod va yo'nalishlari bor?

49. Sinfdan tashqari o'qishga qanday kitoblar tavsiya etasiz?

50. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilishda qanday usullardan foydalanish mumkin?

51. Sinfdan tashqari o'qishlarda kutubxona bilan ishlashning ahamiyati qanday?

52. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish ma'lum maqsadni amalga oshirishga qaratilishi.
53. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish usul va metodlari.
54. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi va hadislardan foydalanish.
55. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda nimalarga e'tibor qilish lozim?
56. Tarbiyaviy ishlar qanday tashkil qilinadi?
57. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ibrat-namuna usulining ahamiyati.
58. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda hadislardan qaysi o'rinda foydalansa bo'ladi?
59. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda qanday metodlardan foydalaniladi?
60. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning ahamiyati.
61. Tarbiyaviy ishlarni salohiyatini oshirish.
62. Ta'lim va tarbiyaning yaxlit amalga oshirish.
63. Bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish usullari.
64. Tarbiyaviy ishlarni qiziqarli bo'lishini ta'minlash.
65. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish nimalardan iborat?
66. Bolalarda axloqiy fazilatni shakllantirishda qaysi usuldan foydalaniladi?
67. Ta'lim va tarbiya qanday amalga oshiriladi?
68. Tarbiyaviy ishlar qiziqarli bo'lishi uchun nimalar qilish lozim?
69. O'quvchilarda axloqiy fazilatlar qanday shakllantiriladi?
70. Pedagogik qobiliyat va mahorat.
71. Ilg'or o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarini kuzatish.
72. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ish turlaridan foydalanish.
73. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish.
74. Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
75. Pedagogik mahorat deganda-chi?
76. Pedagogik mahorat va qobiliyatning turlarini ayting?
77. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ilg'or o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarini kuzatishni ahamiyati nimada?
78. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda qanday ish turlaridan foydalaniladi?
79. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda sahnalashtirishning ahamiyati qanday?

80. Ta'lim va tarbiyaning birligi avvalo ular maqsadining umumiyligidir.

81. Ta'lim va tarbiyaning bog'lashda o'qituvchining vazifasi.

82. Har bir fanda tarbiyaviy ishlarni olib borish.

83. Ta'lim va tarbiyaning bog'liqliklari qanday?

84. Ta'lim va tarbiyada o'qituvchining vazifasi qanday?

85. O'quvchilarni imkoniyatlarini qay usulda ro'yobga chiqarish mumkin?

86. O'quvchilarning qobiliyatlarini qanday tarkib toptirish mumkin?

87. Ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni qanday olib borish mumkin?

88. Sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirishda o'quvchilarni yosh xususiyatlari, faslga, bayramga qarab rejalashtirish.

89. Sinfdan tashqari ishlarning turli xil formalari.

90. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishni usullari.

91. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilarni qiziqishlarini va faolliklarini oshirish.

92. Sinfdan tashqari ish deganda nimani tushunasiz?

93. Sinfdan tashqari ishlarning metodlari deganda-chi?

94. O'quvchilar bilan sinfdan tashqari ishlarni qanday rejalashtirish mumkin?

95. Sinfdan tashqari ishlarning formalari nimalardan iborat?

96. Sinfdan tashqari ishlarning xilma-xilligi deganda nimani tushunasiz?

97. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirishda direktor o'rinbosarining vazifasi.

98. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirishda sinf rahbarining vazifasi.

99. Rejalashtirish usullari.

100. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga o'quvchilarni jalb qilish va ular bilan hamkorlikda ishlash.

101. Ma'naviyat bilan bog'liqlik deganda nimani tushunasiz?

102. Tarbiyaviy ish boshqarish usullarini ayting?

103. Direktor o'rinbosarining vazifalari nimalardan iborat?

104. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish nimalarga bog'liq?

105. Rejalashtirish usullari qaysilar?

106. Jamoaga umumiy ta'rif.

107. Jamoani tashkil qilishda sinf rahbarining vazifasi.

108. Jamoani tashkil qilish usullari.

109. Jamoaning maqsad va rejalari.

110. Jamoa tuzishning ahamiyati.

111. Jamoani tashkil qilish metodlari nimalar?

112. Jamoa qanday guruh hisoblanadi?

113. Jamoani tashkil etish usullarini sanang?

114. Jamoa haqida tushuncha bering?

115. Jamoaning maqsad va rejalari nimalardan iborat?

116. Oila bilan maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo'yishi – tarbiyaning samaradorligidir.

117. Oila bilan maktab hamkorligida sinf rahbarining roli.

118. Hamkorlik ishlarining samarasi.

119. Hamkorlik qilishning yo'l-yo'riqlari.

120. Oila bilan maktab hamkorligi deganda nimani tushunasiz?

121. Barkamol inson tarbiyasi qanday bo'lmoq kerak?

122. Hamkorlik ishlarining samarasi qanday?

123. Yakka tartibda ish olib borish yo'l-yo'riqlari.

124. Maktabdagi o'quv-tarbiya ishlarining yuqori darajada bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berish lozim?

125. O'qituvchi ota-onalar jamoasini tashkil qilishi.

126. Ota-ona bilan o'qituvchining maqsadi birligi.

127. O'qituvchining obro'si, pedagogik odobi.

128. O'qituvchining faoliyatida ota-onalar bilan ishlash metodlari.

129. O'qituvchining ota-onalar bilan qanday ish olib borishi lozim?

130. O'qituvchining obro'si deganda nimani tushunasiz?

131. O'qituvchi va ota-onalar munosabati qanday bo'lishi kerak?

132. Tarbiyaviy ishlarni hamkorlikda qanday shakllantirish mumkin?

133. Bola tarbiyasida kimning o'rni ahamiyatli?

134. Jamoa istiqbolini yaratish.

135. Jamoaning rivojlanish xususiyatlari.

136. O'quvchilar jamoasining faolligini oshirish.

137. Jamoaning maqsadga erishganlik jamoasi.

138. Jamoa deganda nimani tushunasiz?

139. Jamoani o’rganishda nimalarga ahamiyat berish lozim?

140. Jamoa qay tartibda tuziladi?

141. Jamoaning rivojlanishi uchun nimalar qilishi lozim?

142. Jamoada qanday ishlar bajarish mumkin?

143. Jamoa a’zolarining teng huquqliligi.

144. Jamoani rivojlantirishda o’qituvchi har bir bolani qobiliyatiga qarab vazifani topshirishi.

145. Jamoaning maqsadi sari intilishda jamoa qoidalari va talablariga rioya etishi.

146. Jamoada o’quvchilarni mustaqil fikrlashga va dunyoqarashini kengaytirilishiga e’tibor berish.

147. Jamoani shakllantirishda sinf rahbarining vazifalari qanday?

148. Jamoani rivojlantirishda qanday usullardan foydalaniladi?

149. Jamoani shakllantirish talablari.

150. Jamoaga rioya etish qoidalari.

151. O’quvchilarda do’stlik va o’rtoqlik hislarini tarbiyalashda sinf rahbarining vazifasi.

152. Xalq og’zaki ijodidan foydalanish.

153. Hadislardan foydalanish.

154. Do’stlik va o’rtoqlik hislarini tarbiyalashda ularda samimiylik, mehr-oqibat, o’zaro yordam, o’zaro hurmat, bir-birini tushuna olishni o’quvchilar ongiga singdirish.

155. Do’stlik tushunchasi.

156. O’quvchilarni qanday qilib do’stlik ruhida tarbiyalash mumkin?

157. Hadislardan foydalanishning ahamiyati qanday?

158. Samimiylik va o’zaro hurmat deganda nimani tushunasiz?

159. Jamoada shaxsni tarbiyalash usullari.

160. O’quvchilar bilan yakka tartibda ish olib borish.

161. O’z-o’zini tarbiyalashga o’rgatish.

162. Shaxsni tarbiyalash orqali qanday tarbiyalash mumkin?

163. Yakka tartibda yondashish deganda nimani tushunasiz?

164. Shaxsni tarbiyalashda sinf rahbarining o’rni nimada?

165. O’z-o’zini tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?

166. Maktabda ota-onalar qo’mitasini tashkil etish.

167. Ota-onalar hamkorlik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish.
168. 3 Mahalla va oilaning bog'liqligi.
169. Oilaviy tarbiyaning samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
170. Maktab va jamoatchilikning hamkorligi deganda-chi?
171. Mahalla va oilaning bog'liqligi nimada?
172. Hamkorlik ishlarini qanday jonlantirish mumkin?
173. Ota –onalarga uslubiy yordam ko'rsatish deganda nimani tushunasiz?

**Test savollari**

**“Kamtar odamlar ko’p gapirishdan qochadilar, ular ko’p eshitmoqni istaydilar. Eshitmoq kishini boyitadi, ko’p gapirmoq sayozlatadi”. Ko’p gapirgan-ko’p yanglishadi. Bu misralar kimga tegishli?**

*A.Navoiy

A.Avloniy

Ibn Sino

J.J.Russo

M.Oybek

**Chaqaloq hayotida qanday voqyealar an’anaviy nishonlanadi?**

beshikka solish

maktabga borish

ism qo’yish

birinchi qadam

*A va D

**“Hunarning afzalligi”, “Farzandni parvarish qilish haqida” xikmatli so’zlar qaysi kitobdan olingan?** A.S.Makarenkoning “Bolalar tarbiyasi haqida” gi kitoblar

*“Qobusnoma” dan

“Ravshan” dostonidan

Ibn Sinoning “Tadbiri manzil”

A va D

**“Ahloq” deganda nimani tushunasiz?**

*jamiyatda qabul qilingan va jamoatchilik fikri bilan qo’llab quvvatlanadigan inson xulqi normalarni yig’indisidir

kishini o’z obro’sini ardoqlash his – tuyg’usini ulug’lash ota-onaga, oila a’zolarini hurmat qilish, hollaridan xabar olish

gazeta, jurnal o’qib, televizor ko’rish

A va D

**Taniqli rus olimi va yozuvchisi Yuriy Andreyevich "Baxti bo'l o'g'lim" asarini rus tilidan o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?**

A.Navoiy

K.Marks

*Ozod Sharafiddinov

Said Axmad

A va D

**"Kimki g'oyalardan uzoqlasha borsa, pirovard natijasida faqat sezgilari bilangina qoladi"- deb qaysi shoir bu g'oyani ilgari surgan?**

A.Avloniy

*I.Gyote

A.Navoiy

V.A.Suxomlinskiy

Kaykovus

**Tarbiya san'atining o'zi nima?**

*bu bolalarni sevish san'atidir

axloqiy sarchashmalarni yanada yorqin namoyon bo'lishi.

insoniy sevgi, insoniy madaniyatdir

tarbiyani to'g'ri yetkazib berishdir

S, D

**Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimadan kelib chiqqan?**

musulmonchilik farzlaridan

*musulmonchilik talabidan

hadislardan

payg'ambarimiz o'gitlaridan

S, D

**Hozirgi kunda pedagogika fani oldida kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri...**

*bozor iqtisodiyotiga o'tishning ma'naviy – ma'rifiy zamini yaratish

izlanish olib borish

malakali kadrlar tayyorlash

yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

oila, mahalla bilan hamkorlikda ishlash

**Yosh avlodning avlod – ajdodlarimizga munosib voris bo'lib tarbiyalanishlarida nimaning ahamiyati beqiyos?** muhitning

jamiyatning

ma'naviyatning

ta'limning

*milliy va diniy qadriyatlarning

**Qaysi qonunda oilaning jamiyat, davlat oldidagi ma'suliyatini aniqlab yetadigan komil insonni trabiyalashdagi o'rniga alohida e'tibor beriladi?**

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"

*"Ta'lim to'g'risida" gi qonun

konstitusiyada

mustaqillik to'g'risidagi deklarasiyada

hyech qaysi

**Mustaqil O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda qaysi manbalardan foydalanish mumkin?**

*umuminsoniy qadriyatlar, inson ta'minoti, milliy urf – odatlar

diniy va dunyoviy bilimlar madaniyat va ma'naviyat tarbiyasi orqali

halollik va sabr toqat orqali

mehr – muruvvat, shavqat, haqgo'ylik tarbiyasi orqali

**Ertalik bayramida ishtirok etadigan talablarni ruhlantirish ertalik bayramlarini qanday shakllarda o'tkazish kerak?** uchrashuvli ertaliklar

ertalik ertaliklar

*mavsumiy ertaliklar

bolalardan bolalarga ertaliklari

barcha javoblar to'g'ri

**"Peshona teri bilan topgan bir qora chaqa o'zgalarning ehson etgan xazinasidan yaxshiroqdir". Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?**

*A.Navoiy

M.Qoshg'ariy

B.Naqshbandiy

A.Yassaviy

Yu.X.Hojib

**BMT tomonidan "Bolalar huquqlari konvensiyasi" nechanchi yilda qabul qilingan?**

1995 yil

1996 yil

1997 yil

*1998 yil

1999 yil

**Maktab direktorining vazifalari nimadan iborat?**

*o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtiradi va tashkil qiladi, bu jarayon qanday borayotganligini va uning natijalarini nazorat qiladi maktab pedagogik xodimlarining ijodiy o'sishi,

Yangi texnologiyani qo'llash uchun sharoit yaratib beradi

maktab fondi mablag'idan oqilona foydalanishni uyushtiradi

mehnat bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yadi

barcha javoblar to'g'ri

O'z – o'zini tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?

jamiyatda o'z obro' e'tiborini mustahkamlash

chuqur bilim olish, saviyali va malakali bo'lishdir

o'zgalarni hurmat qilish – bu tarbiyaning birinchi bosqichi

*jismoniy va ma'naviy kamolotga yetish uchun kurashdir

o'z ustida ishlash, mustaqil fikrga egaligidir

Shaxs kim?
ma’lum bir jamiyat fuqarosi
o’zining mustqil fikriga ega bo’lgan inson
*individual sifatlarga: intellektual va irodaviy sifatlarga ega odam ongli, fikrli jamiyat fuqarosi
to’g’ri javob yo’q
Qaysi olimlar tomonidan oilaning kommunikativ vazifasini ifodalaganlar?
psixologlar
demograflar
*sosiologlar
pedagoglar
hamma javob to’g’ri
“Agar oila tarbiya usullaridan to’g’ri foydalansa o’ hayotida baxtga erishadi” – degan misralarni qaysi olim qalamiga mansub?
Bobur
Firdavsiy
Abu Rayhon Beruniy
* Abu Ali Ibn Sino
Alisher Navoiy
Bola tarbiyasi bilan birinchi navbatda kimlar shug’ullanishi kerak?
* ota – onalar
o’qituvchilar
qarindosh – urug’lar
maxalla
jamiyat
Otning bolalarga ta’sirining bosh xususiyati nima?
mehribonchilik
*talabchanlik
beraxmlik
e’tiborsizlik A, D

Oilaning eng muhim vazifasi bu...
farzand ko'rish va tarbiyalash
tinch totuv yashash oilani asrab avaylash
sabr qanoatli bo'lish
oila axilligini saqlash
Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida o'z aksini nimalarda topmoqda?
xukumat qarorlarida, o'qituvchilarning izlanishlarida
xalq ta'limi tizimidan islohatlarda
olimlar va ijodkorlar izlanishlarida
sharq mutafakkirlarining ijodida
* A, B
Ijodkor ilg'or o'qituvchi – tarbiyachilar o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda qanday maxorat tamoyillarini asos qilib oladilar?
tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishdan maqsad milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e'tiqodiga aylantirish
tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish
tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish
bola shaxsiga hurmat va talabchanlik
* barcha javoblar to'g'ri
.Amir Temur o'zining pand-nasihatlarida yosh avlodni qanday bo'lishiga chorlaydi?
bilimli bo'lishga
* adolatli bo'lishga
Vatanni dushmanlardan asrashga
har ishda muvaffaqiyatga erisha olishga to'g'ri javob yo'q
Bolani jismoniy tarbiyalash, ularga axloq va mehnat tarbiyasini berish qayerda shakllana boshlaydi?

maktabda

mahallada

bolaga berilgan tarbiyada

* oilada

ko'chada

Shaxs eng avvalo qayerdan shakllana boradi?

maktabdan

ko'chadan

* oiladan  bog'chadan

hamma javob to'g'ri

Maktabda sinf rahbari o'quvchilarga tarbiyaviy ishlarni qanday amalga oshirishi mumkin?

*tadbirlar, mushoiralar, uchrashuvlar

kechalar, uchrashuvlar, bellashuvlar

konkurslar, har xil o'yinlar

suhbatlar, to'garaklar

A, S

O'quvchilarni o'rganishning eng samarali usuli  test

suhbat

anketa

* kuzatish

hamma javob to'g'ri

O'qituvchiga qo'yiladigan talablar:

muomala madaniyatiga ega bo'lish kerak

bilimga ega bo'lishi kerak va o'quvchilarni xolisona baxorlay olish kerak

tarbiyali bo'lishi kerak

pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak

* hamma javoblar to'g'ri

Sinf majlisi kim tomonidan o'tkaziladi?

direktor

direktor o'rinbosari
* sinf rahbari
a'lochi o'quvchi
ota – onalar tomonidan
O'quvchi shaxsini o'rganishda eng ko'p qo'llanadigan, eng qulay usul qaysi?
* suxbat
anketa
test
kuzatish
to'g'ri javob yo'q
Sinf rahbarining ish rejasini kim tuzadi?
maktab direktori
fan o'qituvchilari
* sinf rahbari
o'quvchilarning ota – onalar komiteti
ma'naviyat – ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
Sinfdan tashqari o'qish bu - ...
*darsliklardan foydalanmagan holda boshqa adabiyotlardan foydalanib dars o'tish

darslardan foydalangan xolda dars olib borish
darsliklardan foydalangan xolda tarbiya ishlarini olib borish
ochiq darslar o'tkazish
to'g'ri javob yo'q
O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalaning usul va metodlari qaysi? sinfda o'qvuvchilar intizomliligini mustahkamlash
xulqi yomon o'quvchilar bilan ishlashda jazolash va rag'batlantirish usullarini qo'llash
* ota – onalar va maktab hamkorligi jamoasi bilan ishlash
jamoa bilan ishlash
A, D

Jamoani tashkil qilishda nimalarga e'tibor beriladi?
talablar qo'yishi, faollarni aniqlash va tarbiyalash
o'quv jarayonini tashkil qilish
sog'lom jamoa fikrini shakllantirish
tarbiyaviy ishlarda rag'batlantirish
to'g'ri javob yo'q
O'quvchilar intizomini mustahkamlashda sinf rahbarining roli?intizom to'g'risida tarbiyaviy soat o'tkazish
Intizomsiz o'quvchilar bilan intizomli o'quvchilarni birga o'tirg'izish
* tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish
ota – onalar bilan ish olib borishA, S
Voyaga yetmaganlarning huquqini muhofaza qilishO'zbekiston respublikasining qaysi qonunida ko'rsatilgan.
kadrlar tayyorlash milliy dasturi
ma'naviyat va qo'shimcha ta'lim boshqarmasidagi qonunda bolalar va o'smirlar ma'naviyat markazi ta'lim qonunida
* ta'lim to'g'risidagi qonunda
to'g'ri javob yo'q
Jamoa bu...
ikki yoki undan ortiq maqsadi bir bo'lgan uyushma yoshi, saviyasi, kelib chiqishi, irqi bir xil bo'lgan uyushma
bilim saviyasi bir xil bo'lgan uyushma
*qiziqishlari bir xil bo'lgan uyushma
to'g'ri javob yo'q
Tarbiyaviy soat necha qismdan iborat va ular qaysilar?
* 2 qismdan: ma'rifiy, baholovchi
1 qismdan: yo'naltiruvchi
3 qismdan: ma'rifiy, baholovchi, yo'naltiruvchi
4 qismdan: yo'naltiruvchi, ma'rifiy, baholovchi ma'naviy tarbiyaviy soat qismga bo'linmaydi

## Mundarija

**So'z boshi........................................................................................ 3**

**1.Seminar va laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalari........... 4**

**2. O'z-o'zini nazorat qilish savollari..................................................44**

**3. Test variantlari............................................................................ 51**